



AQLIY RIVOJLANISHNING MANTIQIY MASALALAR YECHISHDAGI AHAMIYATI

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xoshimova Xulkaroy Xoshimjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, magistr

INFO

Qabul qilindi: 25-Aprel 2023 yil

Ma'qullandi: 28-Aprel 2023 yil

Nashr qilindi: 04-May 2023 yil

KEY WORDS

o'quv materiallari, sintetik xarakteristika, tushunchalar, aqliy rivojlanishi;

ABSTRACT

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida didaktik o'yin va mantiqiy masalalardan foydalanish o'quvchilarning hozirjavoblik va fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Shu boisdan ham maqolada boshlang'ich sinflar o'quv jarayonidagi bir xillikga barham berish dars jarayonini turli-tumanligini, rang-barangligini ta'minlash maqsadida ilg'or pedagogik va innovatsion texnologyalarni keng joriy etishga to'xtalib o'tiladi.

Matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Asosiy matematik qonunlarni va zamonaviy dunyoda ulardan foydalanishni bilmasdan turib, deyarli har qanday kasbni o'rganish juda qiyin bo'ladi. Raqamlar va ular bilan operatsiyalarni nafaqat moliyachi va buxgalterlar balki boshqa kasb egalari ham amalga oshiradilar. Bunday ma'lumotsiz, astronom yulduzga masofani va uni kuzatish uchun eng yaxshi vaqtni aniqlay olmaydi, molekulyar biolog esa gen mutatsiyasiga qanday munosabatda bo'lishni tushunmaydi. Muxandis ishlaydigan signal yoki video kuzatuv tizimini loyihalashtirmaydi va dasturchi operatsion tizimga yondashuv topmaydi. Mantiqiy masalalar mazmun jihatdan turli-tuman bo'lib, ularni ko'p sondagi turlarga ajratish mumkin. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini, shuningdek, masalalarning murakkablik darajasini hisobga olgan holda quyidagi tipdagi mantiqiy masalalar:

- To'plam elementlarini tartiblashga doir (Salimning bo'yi Lazizdan baland, Ikromdan esa past. Bolalardan qay birining bo'yi eng baland ekanligini aniqlang?);
- To'plamlar o'rtasida o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatishga doir (sinfdan o'tkazilgan shaxmat musobaqasida Ahmad, Botir va Vali ishtirok etdi. Vali birinchi o'rinni egallamaganligi, Ahmad esa birinchi o'rinni va ikkinchi o'rinni egallamaganligi ma'lum bo'lsa, bolalarning har biri qaysi o'rinni egallagan?);
- kechib o'tishga doir (ota ikkita o'g'li bilan daryodan o'tishi kerak. Qirg'oqda bitta qayiq bo'lib, u faqat otani yoki ikkita o'g'ilni ko'tara oladi holos. Ota bilan o'g'illar qanday qilib daryoning u tomoniga o'tishi mumkin?);
- quyishga oid (hajmi 5l va 3l bo'lgan ikkita idishdan foydalanib, 4l suvni qanday olish mumkin?);

e) torozida tortishga doir (3 ta tanganing 1 tasi qalbaki. U boshqa tangalardan yengil. Toshsiz, pallali torozida bir marta tortish orqali qalbaki tangani qanday aniqlash mumkin?).

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining 1-4-sinflar o'quvchilarini mantiqiy masalalarni yechishga o'rgatishga tayyorgarligini ta'minlash faqat o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish asosidagina hal e'tilmay, balki ularni talabalarga qay darajada bayon etilishiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Bunda o'quv materiallarini bayon etishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisidan u yoki bu tushunchaning kiritilishi, rivojlanishi va qo'llash sohalari mazmun-mohiyatini tushunib yetish uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Mantiqiy masala oddiy masaladan farqli shunday ajoyib masalaki, uni yechishdan zavqlanasiz va rohatlanasiz. Mantiqiy masalani javobi har doim ham sizni ajablantirmasligi mumkin, ammo javobini topgach: "Juda oson ekan-ku, nega uni darrov topa olmadim-a" – deb yuborasiz.

Maktab o'quvchilarining o'qish qobiliyatining rivojlanish darajasi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan metodologiyaning asosiy g'oyasi quyidagicha: o'quvchilar oldiga eng keng tarqalgan qobiliyatlarni namoyon qilishni talab qiladigan masala qo'yiladi - bu mustaqil ravishda kashf etish, munosabatlarni umumlashtirish asosida yangi naqshlarni yaratish qobiliyatiga asoslangan. o'rganishning bir qismi bo'lgan intellektual xususiyatlar yig'indisini, ya'ni sintetik xarakterga ega bo'lgan narsalarga baho berish mumkin bo'lgan sintetik xarakteristikasini o'rganish. Ushbu metodika masalali-sintetik deb nomlanadi.

Ko'p narsani bilish, ammo bunda hech qanday mantiqiy fikrlash qobiliyatlarni namoyish eta olmaslik mumkin, ya'ni, hattoki fanning ma'lum sohasidagi yangi hodisalarni mustaqil ravishda anglay olmaslik mumkinligi allaqachon qayd etilgan. Psixologiya bolaning ruxiy rivojlanishi bilan shug'ullanganligi sababli, matematika metodikasi, shubhasiz, rivojlantiruvchi ta'limni qurishda ushbu fanning tadqiqot natijalariga asoslanishi kerak. Bolalarda tushunchalar va mantiqiy (aqliy) harakatlarni shakllantirishni tadqiq qilish fanga muhim hissa qo'shgan: "Tushunchalar bolaning boshida hissiy tasvirlar ta'limi turiga ko'ra shakllanmaganligi, ammo "tayyor", tarixiy rivojlangan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining natijasi ekanligi va bu jarayon bola faoliyatida sodir bo'lishi ko'rsatilgan. U yoki bu harakatlarni bajarishni o'rganib, u tegishli amallarni o'zlashtiradi". S.L.Rubinshteyn aqliy faoliyat mexanizmini quyidagicha ochib beradi. Qandaydir masalani hal qilishga qaratilgan fikrlash jarayoni boshlanadigan masalali vaziyatning mavjudligi dastlabki vaziyat sub'ekting tasavvurida aynan bir xil emas, tasodifiy jihatda, muhim bo'lmagan aloqalarda berilishini haqida guvohlik beradi. Fikrlash jarayoni natijasida masalani yechish uchun ko'proq ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bu tobora yetarli darajada predmetni bilish va uning oldida turgan tafakkur masalani hal qilish, aqliy jarayonning turli o'zaro bog'liq va vaqtinchalik jihatlarini tashkil qiluvchi, turli xil harakatlar orqali amalga oshiriladi. Bular taqqoslash, tahlil qilish va sintez qilish, mavhumlashtirish va umumlashtirishdir. Bu barcha harakatlarning barchasi asosiy fikrlash amallari – "vositachilik"ning turli tomonlaridir, ya'ni, ob'ektiv aloqalar va munosabatlarni ochishdir. Taqqoslash, narsalar, hodisalar, ularning xossalarini o'xshatib, o'ziga xoslik va farqni ochib beradi. Ba'zi narsalardagi o'xshashlikni, boshqalaridagi farqlarni aniqlab, taqqoslash ularni tasniflashga olib keladi.

Mantiqiy fikrlash bilishning boshlang'ich shaklining qismidir: narsalar mantiqiy fikrlash orqali o'rganiladi. Bu ayni paytda bilishning elementar shakli hamdir.

V.V.Davidov yozganidek, "Insonning aqliy rivojlanishi, bu, avvalambor, uning faoliyati, ongi va

albatta, ularga xizmat qiladigan barcha aqliy jarayonlar (bilim jarayonlari, hissiyotlar va boshqalardir". Bundan kelib chiqadiki, o'quvchilarning rivojlanishi ko'p jihatdan ularning o'quv jarayonida bajaradigan faoliyatiga bog'liq. Didaktika kursidan ma'lumki, bu faoliyat reproduktiv va samarali bo'lishi mumkin. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ammo qaysi faoliyat turi ustunlik qilishiga qarab, ta'lim bolalarga turlicha ta'sir qiladi. Reprodukativ faoliyat o'quvchining tayyor ma'lumotni olishi, uni idrok qilishi, tushunishi, eslab qolishi, keyin qayta aytib berishi bilan tavsiflanadi. Bu namuna, algoritm asosidagi faoliyatdir. O'qituvchi yangi tushunchaning mohiyatini ochib beradi, o'quvchi uni o'zi tushuntira olishi kerak.

Rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta'lim sharoitida nafaqat bilimlarga bo'lgan ehtiyojni tarbiyalashgina emas, balki o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar tizimi bilangina emas, balki zamonaviy bilish usullari bilan ham qurollantirish zarur. Rivojlantiruvchi ta'limning markaziy bo'g'ini o'quvchining o'quv maqsadlariga erishishga qaratilgan, fikrlash ko'nikmasini shaxsning umumiy, integratsion qobiliyatlari sifatida shakllantirishdir. Rivojlantiruvchi ta'limda fikrlash jarayonining barcha mazmuniy qismlari dialektik jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ulardan birini o'zgartirish boshqasini o'zgarishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva B.S, Xamedova N.A, Xusanova M.A. Boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalansi metodikasi uslubiy qo'llanma.–Toshkent:Jahon print, 2010.
2. Abdullayeva B.S, Sadikova A.V, Toshpo'latova M.I, Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish.– Toshkent: Jahon-Print, 2011.
3. Axmedov M, Abduraxmonova N, Jumayev M. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo'llanma. Toshkent: Turon iqbol, 2018. –166 b.
4. A'zamov A. Yosh matematika qomusiy lug'at.- Toshkent: Turon iqbol, 1991.
5. Bikbayeva N.U va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.- Toshkent: O'qituvchi, 2007.
6. Bikbayeva N.U va boshqalar. Matematika 3. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
7. Soliyev I., Ergasheva D. OUR FAVORITE WAYS TO TEACH FAIRY TALES //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 338-342.
8. Ergasheva D. BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING O 'RNI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 139-141.
9. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLANG 'ICH TA'LIM FANLARINI O 'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME'ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 16-20.
10. Sobirjonovich S. I. EASTERN THINKERS'VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 309-314.